

“TARIXI TABARIY” XUROSON TARIXI BO‘YICHA MUHIM MANBA

Solijonov Jasurbek Bahromjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs magistranti,
jasurbeksolijonov133@gmail.com
+998903652201

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning “Tarix ar-Rusul val-Muluk” asarining Movarounnahr, xususan Farg‘ona vodiysi tarixini yoritishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, hijriy 94-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan amalga oshirilgan Shosh va Farg‘ona yurishlari, ularning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy oqibatlari muhim tarixiy faktlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixi Tabariy, Qutayba ibn Muslim, Farg‘ona, Shosh, Movarounnahr, arab yurishlari.

АННОТАЦИЯ: В статье анализируется роль труда Абу Джрафа Мухаммада ибн Джарира ат-Табари «Тарих ар-Русул валь-Мулук» в освещении истории Трансоксании и, в частности, Ферганской долины. В частности, на основе важных исторических фактов освещаются походы Кутайбы ибн Муслима в Шаш и Фергану в 94 г. по хиджре, а также их социально-политические и культурные последствия.

Ключевые слова: История: Табари, Кутайба ибн Муслим, Фергана, Шаш, Моваруннахр, арабские походы.

ABSTRACT: This article analyzes the role of Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir al-Tabari's "Tarikh ar-Rusul wal-Muluk" in illuminating the history of Transoxiana, especially the Fergana Valley. In particular, the Shash and Fergana campaigns carried out by Qutayba ibn Muslim in 94 AH, their socio-political and cultural consequences are covered based on important historical facts.

Keywords : History: Tabari, Qutayba ibn Muslim, Fergana, Shash, Transoxiana, Arab campaigns.

KIRISH:

Tarixiy manbalar tarixiy tadqiqotlar uchun eng muhim asosni tashkil etadi. Ular tarixdagi voqealar, ijtimoiy tuzilmalar, iqtisodiy va madaniy holatlar haqida ma’lumot beradi. Tarixiy manbalar bir nechta shaklda bo‘lishi mumkin: yozma, arkeologik, etnografik, og‘zaki va boshqalar. Yozma manbalar tarixshunoslikda juda katta ahamiyatga ega, chunki ular o‘tmishdagi voqealarni, ijtimoiy hayotni, siyosatni va madaniyatni aniq va ishonchli tarzda qayd etadi. Yozma manbalar tarixiy tadqiqotlar uchun ajralmas qism hisoblanadi, chunki ular aniq va to‘g‘ri ma’lumotlar, vaqt va holatlarni aks ettiradi. Ular nafaqat o‘tmishdagi voqealarni, balki odamlar va jamiyatlar

haqida chuqur bilimlar olish imkonini beradi. Tarixiy manbalarning har bir turi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lsa-da, yozma manbalar bu sohada asosiy va eng ishonchli vosita sifatida qoladi.

Manashunday yozma manabalarga Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning Tarixi Tabariy “*Tarix ar-rusul val-muluk*” asarini misol qilishimiz mumkin. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839-923) Tabaristonning Amul shahrida (hozirgi Eron shimolidagi shahar) zodagon oilada tug‘ilgan. Amul shahrida dastlabki ta’limni olgan. Yetti yoshida u hofiz bo‘lgan. 12 yoshida u o‘qishni davom ettirish uchun o‘z uyini tark etib, avval Rayda mashhur muhaddis va faqihlar qo‘lida o‘z bilimini oshirgan, so‘ngra Bag’dod, Basra, Kufaga borib, zamonasining mashhur ulamolariga shogird tushgan. Suriya, Falastin va 867-yilda Misrga borganida yetuk olim sifatida e’tirof etilgan. U Bag’dodga qaytgach, „Al-Jaririyya“ deb atalgan o‘zining fiqh (huquq) maktabiga asos solgan. Ahmad ibn Komil Abu Bakr, Abdulaziz ibn Muhammad Tabariy, Abdulloh ibn Ahmad Farg‘oniy uning yetuk shogirdlaridan bo‘lishgan. Arab tarixiy adabiyotida u „*musulmon tarixshunosligining otasi*“ sifatida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi. At-Tabariyning „*Tarix ar-rusul val-muluk*“ („Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi“, „*Tarixi Tabariy*“ nomi bilan mashhur) asarida dunyo yaratilishidan to IX asrgacha bo‘lgan tarixni o‘z ichiga oladi, islom tarixshunosligining eng yirik asaridir. Bu asar 914-yilda yakunlangan.

Bu yirik asarning salmoqli qismi VII asrdan X asr boshlariga qadar qadimiy Turon, o‘sha davr arab mualliflari iborasicha, Movarounnahrda kechgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga bag‘ishlangan. Tabariy tarixida VII asr oxirgi choragidan Turkiston xalqlarining yangi din, notanish ma’naviy dunyo, o‘zgacha falsafiy qarashlar, tuganmas shiddatga to‘lib toshgan yangi g‘ayratli qavm, makkor va aqli jangchilardan iborat qo‘shinga duch kelishi, ularga qarshi kurashi qiziqarli tafsilotlarda aks etgan. Muallif o‘sha davrlarda kechgan tarixiy voqealar orqali Buxoro, Samarqand, Xorazm, Sug‘d, Nasaf, Termiz, Kesh, Ustrushona, Shosh, Farg‘ona viloyati va shaharlari o‘tmishi, ularning ahvoli, xalqining turmush tarzi, harbiy qudrati va kamchiliklari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beradi. Unda ko‘plab qadimiy joy nomlari uchraydi, ayrimlari shu paytgacha saqlanib qolgan. Mashhur Qutayba ibn Muslim bosqini, Abu Muslim siyosiy harakati, Muqanna nomi bilan shuhrat qozongan Hoshim ibn Hakim qo‘zg‘oloni, Rofe ibn Lays boshchiligidagi xalq isyoni kabi tarixiy voqealar qiziqarli hikoya qilinadi. Ular bugungi jamiyat kishisiga bir yarim ming yil oldin yurtimizda ro‘y bergen ijtimoiy hodisalarni aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Millatning shonli o‘tmishini o‘rganish, undagi ulkan mavhumliklarni yoritish, o‘zlikni topish yo‘lida mazkur asarning ko‘magi katta va behad ahamiyatlidir.

“*Tarixi Tabariy*” sho‘rolar inqilobiga qadar yurtimizda eng mashhur asarlardan biri sifatida o‘qib-o‘rganilgan. Ikki marta turkiy tilga tarjima qilingan va ular

qo‘lyozmalar xazinasida №9470, 1229 raqamlari bilan saqlanadi. №1229 raqamli qo‘lyozma (685 varaq, 1370 sahifa) Muhammad Yusuf Bayoniy (1859 – 1923) tomonidan Xorazmda turkiyga o‘girilgan¹.

Qo‘lyozmalar xazinasida asarning yana o‘n to‘rtta (12593, 4226, 831, 7466...) forsiyga tarjima qilingan nusxasi saqlanadi. Mutaxassislar fikricha, 7322 raqamli qo‘lyozma X asrda Muhammad ibn Muhammad Bal’amiy tomonidan ba’zi bir to‘ldirishlar bilan fors tiliga tarjima qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarxi Tabariy asaridagi Qutayba ibn Muslimning Farg‘onaga yurishi bo‘lgan qismini to‘xtalsak. Hijriy 94-yil, Qutayba ibn Muslim Shosh (Toshkent) va Farg‘ona yurishlariga yo‘l oldi. U Marv orqali harakatlanib, Iroq chegaralaridan o‘tdi. Kesh, Nahshab va Xorazmdan 20 ming askar yig‘di. Bu qo‘shinlarning katta qismini Shoshga yubordi, o‘zi esa Farg‘ona shahriga bordi².

Farg‘onaliklar yoppasiga qarshilik ko‘rsatish uchun to‘plandilar. Arablar bilan qattiq janglar bo‘ldi. Biroq musulmonlar hech qanday g‘alaba yoki muhim ustunlikka erisha olmadilar. Uzoq davom etgan janglar natijasida arab askarlarining ruhi tushdi.

Bir kuni, Farg‘onaliklar yana jang qilishga hozirlik ko‘rayotgan vaqtida, ikki arab askari baland tepalikda turib, musulmon qo‘shinlarining tartibsiz va tarqoq holatini kuzatdi. Ulardan biri dedi:

— Agar bugun ham jang qilsak, mag‘lub bo‘lamiz.

Boshqasi unga qarshi chiqdi va Avf ibn Hazrajning mashhur she’rini esladi:

“Biz shunday qavmmizki, jang bizga yoqadi.

Qush o‘ngdan uchsa ham, chapdan uchsa ham — biz jangdan qochmaymiz.”

Bu yerda arablar orasidagi qadimiy e’tiqod eslatiladi: jang yoki ovga chiqqanlar qush o‘ng tomondan uchsa — omadlilik belgisi, chapdan uchsa — yomon alomat deb qarashgan. Ammo Avf ibn Hazraj o‘z she’rida bu e’tiqodlarni rad etib, jasorat va qat’iyatni ulug‘laganini ta’kidlaydi.

Shundan so‘ng Qutayba Farg‘onani tark etib, Kashan tomon yo‘l oldi. Bu orada Shoshga yuborilgan 20 ming askar ko‘plab yerlarni zabit etib, boy o‘lja bilan qaytdilar. Keyinchalik Qutayba o‘z yurishini yakunlab, Marvga qaytdi.

Quyidagi Tabriyning fikridan boshqa Qutaybaning Farg‘onaga bo‘lgan yurishi haqida bir qancha qarashlar mavjud:

Balazuriy Qutaybaning yurishlarini qisqaroq bayon qiladi³. Uning asarida Farg‘ona yurishi haqida kamroq ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, Qutaybaning Movarounnahrdagi harbiy faoliyati umumiylar tarzda tasvirlanadi.

¹ O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. — Samarcand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016. — B. 628.

² At-Tabariy, Muhammad ibn Jarir. *Tarix ar-Rusul val-Muluk* (Tarixi Tabariy). — Qohira: Dar al-Ma’arif, 1967

³ Balazuriy, Ahmad ibn Yahyo. *Futuh al-Buldan* (Mamlakatlarning fath etilishi). — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1987.

Ibn al-Asirning asarida Qutaybaning Farg‘ona yurishi haqida ma’lumotlar mavjud. Uning yozishicha, Qutayba Farg‘onaga yurish qilgan, ammo bu yurish muvaffaqiyatsiz bo‘lgan. Bu ma’lumotlar Tabariyning matn bilan mos keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Qutaybaning Farg‘ona yurishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar bu yurishni muvaffaqiyatsiz deb hisoblashadi, boshqalari esa uni muvaffaqiyatli deb baholashadi. Masalan, Britannika ensiklopediyasida Qutaybaning Farg‘ona yurishi haqida ma’lumotlar mavjud. Unda yozishicha, Qutayba Farg‘onani bosib olganligi haqida ma’lumotlar bor⁴.

Yana ba’zi manbalarda Qutaybaning Farg‘onada vafot etganligi haqida ma’lumotlar keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Tabariyning “Tarix ar-Rusul val-Muluk” asari Movarounnahr, jumladan Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganishda noyob va ishonchli manba hisoblanadi. Qutayba ibn Muslimning Farg‘onaga yurishi haqidagi bayonlar bu yurishning murakkab, harbiy va siyosiy jihatdan serqirra voqeа bo‘lganini ko‘rsatadi. Turli manbalardagi tafovutlar, xususan Balazuriy, Ibn al-Asir va zamonaviy tadqiqotlar orqali bu yurishga nisbatan qarashlar xilma-xilligini anglash mumkin. Ayrim manbalarda bu yurish muvaffaqiyatsiz deya ta’riflansa-da, Tabariy matnida uning nisbiy muvaffaqiyatlari aks ettirilgan. Maqola shuni anglatadiki, Tabariy asari faqat tarixiy ma’lumotlar emas, balki zamonaviy tarixiy tahlil uchun ham boy faktologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. At-Tabariy, Muhammad ibn Jarir. *Tarix ar-Rusul val-Muluk* (Tarixi Tabariy). – Qohira: Dar al-Ma’arif, 1967.
2. Balazuriy, Ahmad ibn Yahyo. *Futuh al-Buldan* (Mamlakatlarning fath etilishi). – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1987.
3. Ibn al-Asir, Ali ibn al-Hasan. *Al-Kamil fi’t-Tarix*. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1995.
4. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far. *Tarixi Buxoro*. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Beruniy, Abu Rayhon. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
6. Encyclopaedia Britannica. *Qutayba ibn Muslim al-Bahili*. – <https://www.britannica.com>
7. Yusuf Bayoni. *Tarixi Tabariy* tarjimasi (qo‘lyozma). – O‘zbekiston FA Qo‘lyozmalar instituti fondi, inv. №1229.
8. Al-Bal’amiy, Muhammad ibn Muhammad. *Tarixi Tabariy forsiyga tarjimasi*. – Qo‘lyozma nusxa, inv. №7322.

⁴ Encyclopaedia Britannica. *Qutayba ibn Muslim al-Bahili*. – <https://www.britannica.com>